

**IBROHIM G'OFUROVNING** aytishicha, agar davlat rahnamolik qilsa, homiylik qilsa, gazeta va jurnallar, hech bo'lmasa mamlakatdagi asosiy nashrlar, ya'ni hammaga kerak, davlat siyosatini, ma'naviyatini, ma'rifatini ko'taradigan nashrlarning qaddini tiklash mumkin bo'ladi.

5-sahifa



«KORRUPSIYANI «HAZM» QILA OLMAYDIGAN AVLODNI YARATISH ENG MUHIM VAZIFAMIZ...»

2-sahifa

Har yili

10 MLN.



gektarga yaqin maydonda o'rmonlar vayron bo'lmoqda

5-sahifa



«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

# milliy tiklanish

MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

№ 43  
13-dekabr, dushanba  
Adol - 7 172



«TILDA,

## FIKRDA, ISHDA BIRLIK»

### G'OYASI YANGI O'ZBEKISTON SIYOSATINING HAM ASOSIDIR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmatini va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini

hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ'ib etish bizning ustuvor vazifamiz ekaniga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas. Zero, o'z mohiyat-e'tiboriga ko'ra, noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo'lgan jadidchilik g'oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko'plab

tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu harakat namoyandalarning Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Davomi 3-sahifada

Shu kungacha jahon miqyosida nom qozongan adib, davlat va jamoat arbobi Chingiz Aytmatovning 95 yilligi keng nishonlanmoqda.

**Insaniyatni** ezigulikka, ogohlikka undagan adib

Ba'zan to'rt oyoqli ot ham qoqiladi...  
To'g'ri, qoqilishning - xatoning xatodan farqi bor. Ammo farang yozuvchisi Madlen de Skyuderi xonim aytgan achchiq bir haqiqatni tan olaylik: biz yomon ko'rib qolganlarimiz xatosini aslo kechirmaymiz. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalqimiz yomon atalib yurguncha, yaxshi atalib o'lgan yaxshi deydi...



2-sahifa

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

**HURFIKRLILIK**  
**OG'IZGA NIMA KELSA AYTAVERISH KERAK, DEGANI EMAS!**

6s

**Bu masalada HAZIL HAROM**

5s

**TA'LIM VA ERKIN TANLOV**

uyg'unligi orqaligina katta yo'lga chiqamiz

Ta'lim kelajagimiz ekanini bugun anglab yetganimiz yo'q. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sanalgan ta'limdagi muammolar haqida bejiz bong urilmayapti.

Alohida ta'kidlash joiz, keyingi yillarda ta'lim tizimidagi islohotlar sabab o'quvchi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ammo ana shunday sa'y-harakatlarga qaramasdan kamchiliklar, muammolar mavjud, hammamiz ko'rib-bilib turibmiz. Ma'lumki, ta'limning bosh maqsadi - zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish. Shuning uchun ham

ilg'or tajribalarni o'rganyapmiz, tatbiq etyapmiz. Hozir ta'limda eng asosiy muammo nimada? Bu yerda biz ikkita muhim narsani hal etishimiz zarur.

1. O'quvchi ta'lim muassasasi (ta'lim muassasasi) deganda ta'lim tashkiloti ham nazarda tutilmoqda)ni tanlashi va teskarisi, ya'ni ta'lim muassasasi o'quvchini tanlashi imkoniyatini yaratish.

Davomi 4-sahifada



# «KORRUPSIYANI «HAZM» QILA OLMAYDIGAN AVLODNI YARATISH ENG MUHIM VAZIFAMIZ.»

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining kecha bo'lib o'tgan navbatdagi majlisida Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruzasi muhokama qilindi. Agentlik direktori Akmal Burhonovning qayd etishicha, ma'ruzada korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va kompleks chora-tadbirlar, xususan, bu borada davlat dasturlarining amalga oshirilishi, sohaga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, korruptsiyaga oid jinoyatchilik tendensiyasi hamda davlat tashkilotlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyati atroflicha tahlil qilingan.



Ta'kidlanganidek, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida so'nggi besh yilda korruptsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga olib chiqilgani, bu borada aybdorlarni huquqiy javobgarlikka

Vazirlik va idoralar funksiyalarining optimallashtirilishi natijasida xususiy sektorga o'tkazilayotgan davlat funksiyalari kamida 3 barobarga ko'paytirilmoqda. O'zbekiston Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda «Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan 2023-yil 1-yanvardan boshlab ijro organlari soni 61 tadan 28 taga, vazirliklar soni 21 tagacha qisqardi, 20 ta idora to'liq tugatildi.

Bundan tashqari, davlat organlari va tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting asosida baholash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etildi. Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarida korruptsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha «E-Antikorruptsiya» loyihasi ishga tushirildi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish sifati yaxshilanib, ortiqcha tartib-taomillar qisqartirildi hamda elektron shaklda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni oshirildi. Jumladan, 73 turdagi hujjat va ma'lumotlarning aholidan talab qilinishi bekor qilinib, taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar soni 221 tadan 95 taga (43 foiz)

qisqartirildi, 6 ta litsenziya va ruxsatnomaning 17 ta talab va shartlari bekor qilindi. 771 ta davlat xizmatlarining 261 tasi (33,8 foiz) Davlat xizmatlari markazi orqali, 360 dan ortig'i Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron ko'rsatilmoqda, shu jumladan, 240 dan ortiq xizmatlar tadbirkorlik subyektlari uchun mo'ljallangan. 59 turdagi davlat xizmatlarini ko'rsatish muddatlari qisqartirildi, ushbu xizmatlar oldin 30 kundan 90 kungacha muddatda ko'rsatilgan bo'lsa, endilikda 1 kundan 30 kungacha kamaytirildi.

Raqamlashtirish orqali «inson omili»ni kamaytirish maqsadida barcha sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ishleri yanada rivojlantirildi. Xususan, «Raqamli O'zbekiston-2030» strategiyasi doirasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini raqamlashtirish bilan bog'liq 369 ta loyiha amalga oshirildi.

Umuman, korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi bunday sa'y-harakatlar natijasida 2022-yil uchun «Transparency International» tashkilotining «Korruptsiyani qabul qilish» indeksi yangi reytingida O'zbekiston 14 pog'onaga ko'tarilib, indeks bahosida qatorasiga 9 yil davomida barqaror o'sishga erishildi.

Ammo majlisda, ana shunday

o'zgarishlarga qaramasdan normativ-huquqiy hujjatlarni korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish natijasida aniqlangan korruptsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha «yo'l xaritalari» ijrosi o'z vaqtida ta'minlanmagani qayd etildi. Deputatlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiyani qabul qilish ishlari yakuniga yetkazilmagani, hududlarda korruptsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida hududiy Kengashlarning roli va o'rni sezilmayotgani yuzasidan ham bir qator savollarni berishdi.

Xalq vakillari byudjet mablag'larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiyasi qilinishi, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi bilan bog'liq materiallarni o'rganish, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdori shaxslari qarorlari qonuniyligi yuzasidan o'tkazilayotgan nazorat samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ham berildilar.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari Alisher Qodirov ushbu masalaga fraksiyaning munosabatini bildirar ekan, Agentlikning tashkil etilishi Yangi O'zbekiston islohotlarida o'ziga xos burilish bo'lganini, hali yetarli darajada bo'lmas ham agentlik qisqa vaqt ichida mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish oqimini yarata olganini ta'kidladi.

Masalan, ilgari asosan idoramador, sarson-sargardon yuriladigan jarayonlar elektron xizmat ko'rsatish orqali butunlay hal qilindi. Shuning uchun ham inson omilisiz, shaffof, ochiq va tezkor ko'rsatilayotgan xizmatlardan odamlar rozi bo'lishyapti. Ammo bugun jamiyatimizda hal qilinishi lozim bo'lgan shunday muammolar ham borki, ularni birgina agentlik yelkasiga tashlab qo'yish noto'g'ri.

Partiya fraksiyasining bir kun oldin bo'lib o'tgan yig'ilishida deputatlar milliy ma'ruzani qo'llab-quvvatlab, ta'lim-tarbiya tizimida yuz berayotgan korruptsiyon holatlar masalasini ko'targan, uni hal qilish bo'yicha agentlikka o'z takliflarini bildirgan edi.

Alisher Qodirov yalpi yig'ilishda yana bir bor ushbu masalalarga to'xtalib, korruptsiya millatimiz uchun eng katta illat ekanini, qadriyatlarimiz uni hech qachon qabul qilmaganini aytdi. Korruptsiyaga qarshi kurashishning eng samarali yo'l esa halollik va yaxshi tarbiyadir.

O'zgalarning haqidan qo'rqadigan shunday bir avlodni tarbiyalashimiz kerakki, agar bunga erishsak, jamiyatimizda bu illatga qarshi katta zarba bergan bo'lamiz, — dedi fraksiya rahbari.

Alisher Qodirovning aytishicha, deputatlarining joylardagi o'rganishlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bugun bolalarni bog'cha va maktablarga joylashtirishdan tortib, ishga qabul qilishgacha bo'lgan jarayonlar, shuningdek, o'qituvchilar mehnatiga haq to'lash, toifalash bilan bog'liq ishlarda ham korruptsiyon holatlar ko'zga tashlanmoqda. Ta'lim-tarbiyadagi bunday illatlar bartaraf etilmas ekan, korruptsiyaga qarshi ishlab chiqiladigan milliy strategiya ijrosi ham muvaffaqiyatli bo'lmaydi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi qadriyatlarimiz va tarbiyaga asoslangan, korruptsiyaga betoqat avlodni yaratishda hayotmamorat masalasi hisoblangan ta'lim-tarbiya sohasida bunday illatlarga qarshi beayov kurashmog'i lozim. «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi agentlikning bunday harakatlarini doimo qo'llab-quvvatlaydi va bu borada hamkorlik qilishga tayyor.

Ravshan MAHMUDOV,  
«Milliy tiklanish» muxbiri

**O'ZBEKISTON PREZIDENTNING 2022-YIL 21-DEKABRDAGI «YANGI O'ZBEKISTON MA'MURIY ISLOHOTLARINI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA»GI FARMONI BILAN 2023-YIL 1-YANVARDAN BOSHLAB IJRO ORGANLARI SONI 61 TADAN 28 TAGA, VAZIRLIKLAR SONI 21 TAGACHA QISQARDI, 20 TA IDORA TO'LIQ TUGATILDI.**

tortish bilan cheklanib qolmasdan, tizimli preventiv choralarini kuchaytirish zarurligi hamda korruptsiya balosiga qarshi faqat davlat emas, balki butun jamiyat qarshi kurashmog'i kerakligi qayd etilgan edi.

O'tgan yil oxirida amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar orqali «qo'l» boshqaruvidan «avtomatik» boshqaruvi tizimiga o'tish jarayoni boshlandi. Eng asosiysi, byurokratiya qisqartirilib, ma'lum bir tashabbusni ilgari surish uchun 9 pog'onali «ruxsat olish» amaliyotidan voz kechildi.

## ✓ O'g'riqli nuqta

# «...ishoning, u hamon yaxshi ona!»

Ba'zan to'rt oyoqli ot ham qoqiladi... To'g'ri, qoqilishning — xatoning xatodan farqi bor. Ammo farang yozuvchisi Madlen de Skyuderi xonim aytgan achchiq bir haqiqatni tan olaylik: biz yomon ko'rib qolganlarimiz xatosini aslo kechirmaymiz. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalqimiz yomon atalib yurguncha, yaxshi atalib o'lgan yaxshi deydi...

«Milliy tiklanish»ning «Ayollar qanoti», to'g'rirog'i, ana shu qanot yetakchisi Feruza Muhammedjanovaning tashabbusi bilan iqtidorli rassom, ayni paytda majburiy davolanishda saqlanayotgan Zilola To'laganovaning «Meni eshiting» nomli ko'rgazmasi tashkil etildi.

Ko'rgazmada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, taniqli ijodkorlar, san'atshunosu rassomlar, noshirlar va OAV vakillari ham ishtirok etdilar. Ammo ishtirokchilarning asosan nozik hilqat vakillaridan iborat bo'lgani nazarinimda, Zilola To'laganova va uning keyingi hayoti haqidagi ma'lumotlar hali ko'pchilikka yetib bormaganini anglatadi.

Partiya Markaziy kengashi bo'limi boshlig'i Feruza Jalilovaning yozishicha, keyingi paytlarda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish, ularni qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar olib borilyapti.

Tashkil etilgan ko'rgazma ham aslida ana shu yo'nalishdagi ishlarning bir «qanoti» xolos.

Markaziy kengash raisi o'rinbosari Feruza Muhammedjanova ko'rgazmani ochar ekan, uni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad ayni paytda og'ir ruhiy holatni boshidan kechirayotgan rassom ayolni qo'llab-quvvatlash, ijodini keng targ'ib qilish, iqtidorini yuzaga chiqarish, taniqli san'atshunoslar, rassomlar, noshirlar, psixologlar fikrlari asosida Z.To'laganova haqida ijobiy fikr uyg'otish.

— Bunday fojiali holatlarning

oldini olish uchun ularning oqibatlari bilan emas, insonni o'zini boshqara olmaydigan holatga olib kelgan sabablar bilan kurashish muhim ekanini yana bir bor jamoatchilikka anglatmoqchimiz, — dedi F.Muhammedjanova.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad esa «Meni eshiting» degan ibora XXI asrning eng baland shioriga aylinishi lozimligini ta'kidladi. Chunki hozir ommaviy muloqot oildada, ko'cha-ko'ya, ishonada ham eng tanqis muammoga aylandi.

Ko'rgazmada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, taniqli shoiri Farida Bo'tayeva, Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi raisi Malika Qadrixanova, taniqli huquqshunos Adinaxon Abduxaliqovalar so'zga chiqib, oilaviy mojarolarning kelib chiqish sabablari, er-xotin munosabatlari, bu borada qonunchilikdagi boshliqlar haqida kuyinib gapirdilar.

Tadbir yakunida esa bundan bir yilcha muqaddam o'z bolasini hayvonot bog'idagi ayiq saqlanadigan handakka tashlab yuborgan Z.To'laganovaning turli yillarda chizgan o'ttizdan ziyod ijodiy ishlari, u badiiy muharrirlik qilgan yuzdan ortiq kitoblari, hayoti va ijodiga oid fotosuratlar hamda ayni paytda shifoxonada yaratgan asarlari namoyish etildi. Va, «Ayollar va yoshlar qanoti» tashabbusi bilan suratga olingan «Meni eshiting» nomli film namoyish qilindi.


M.KARIMOVA,  
«Milliy tiklanish» muxbiri



# «TILDA, FIKRDA, ISHDA BIRLIK»

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmatini va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ'ib etish bizning ustuvor vazifamiz ekaniga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.

# G'OYASI YANGI O'ZBEKISTON SIYOSATINING HAM ASOSIDIR



**Z**ero, o'z mohiyat-e'tiboriga ko'ra, noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo'lgan jadidchilik g'oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu harakat namoyandalari Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tabrikda shuningdek, taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o'rni va ta'sirini o'rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansi buniyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega ekanini ta'kidlandi.

Millatimiz yetakchisi tabrigida, shuningdek, «Tilda, fikrda, ishda birlik» degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jaded bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflet botqog'idan

chuqur o'rganish biz uchun nafaqat burch, balki o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolardan to'g'ri xulosalar chiqarish bilan birga istiqbolli rejalarni tarix bilan bog'lashda ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Shu bois ham Davlatimiz rahbari tabrigida qayd etilganidek, bugun xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o'rganish hamda targ'ib etish nihoyatda muhimdir.

Prezident tabrigini o'qir ekanimiz, unda jadidchilik harakatining tarbiya va ta'limdagi roli, ayniqsa, vatanparvar yangi avlodni shakllantirishdagi mohiyatiga ham urg'u berilganini ko'ramiz. Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilish bilan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi.

Bir so'z bilan aytganda, Yurtboshimiz tashabbusi bilan Toshkentda o'tgan va dunyo tarixchilari e'tiborini tortayotgan anjuman nafaqat biz, Markaziy Osiyo aholisi va turkiy tili

davlatlar, hatto dunyo ahlini ham kecha va bugungi kun o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratishga undayotir.

Tarix, shubhasiz, eng dono muallim, u eng avvalo avlod-ajdodlarimizning kim bo'lganlarini ko'rsatib beradi.

So'z tarixchi-olimlar va konferensiya mehmonlariga:



**Bahrom Irzayev, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi bosh ilmiy xodimi:**

– Bilamizki, jadidlar orzusi istiqlol va hurlikka erishish bo'lgan. Shunisi aniqki, jadidlar avvalo, ta'limga asosiy urg'u bergan va bu tashabbus hamon dolzarbligicha qolmoqda. Toshkentda ushbu anjumanni o'tkazishdan maqsad, san'at emas, adabiyot emas, aynan g'oyalar atrofida jipslashishdir. Biz bu g'oyani, dasturni jadidlarda ko'rdik.



**Bahodir Karimov, (filologiya fanlari doktori, professor):**

– Mamlakatimiz tarixidagi jadidchilik harakatini faqat o'zbek olimlari o'rganayotgani

yo'q. Balki butun dunyo ziyolilari ham o'rganmoqda. Mazkur yirik anjumanni tashkil etishdan maqsad, xorijlik tadqiqotchilarning fikrlari qanday, bizning tariximizga, jaded adabiyotiga, jaded siymolariga ularning munosabatlari qanday, ularning fikrlari bizning fikrlarimizga to'g'ri keladimi...

Ana shular haqida fikr almashishdan iborat. Mening tasavvurim bo'yicha ularning qarashlari bizning qarashlarimizni yanayam boyitadigan fikrlar bo'lishi, shubhasiz.




**Adib Khalid, (tarixchi olim AQSH)**

– Men 35 yildan beri jadidchilikni tadqiq qilish bilan shug'ullanib kelaman. Ushbu nufuzli tadbir orqali jadidlar haqida yanayam ko'p ma'lumotlarni bilish mumkin. Jadidchilikni o'rganish Markaziy Osiyo tarixi uchun ham juda muhim. Mazkur konferensiyada boshqa o'lkalardan tashrif buyurgan jadidshunoslar ham ishtirok etishmoqda, ular bilan fikr almashish imkoniyati bor va biz bundan unumli foydalanmog'imiz lozim.

**Hisao Komatsu, (tarixchi olim Yaponiya)**

– Men ilk qiziqqan jaded Abdurauful Fitrat bo'lgan. Men uning Istanbulda forschada yozgan asarini



o'qiganman va bu menga katta ta'sir qilgan edi. O'shandayoq bu qadar g'oyasi kuchli asar yozgan jadedning faoliyatiga, qarashlariga qiziqishim ortgandi. So'ng Abdurauful Fitrat haqida monograf kitob yozdim va yapon o'quvchilariga jadidchilik harakatlarini tanitmoq uchun 2018-yilda kitobimni Yaponiyada chop ettirdim.



**Mehmet Tutunji, (Turkiston-Ozarbayjon tadqiqot markazi rahbari (Niderlandiya))**

– Bugun O'zbekistonda, Toshkentda o'tkazilayotgan ushbu tadbir menda katta taassurot qoldirmoqda. O'zbekiston Prezidenti o'z chiqishlarida bir necha bor ta'kidlaganidek, o'z zamonasining ilg'or vakili bo'lmish jadidlar o'ta murakkab bir sharoitda milliy uyg'onish va taraqqiyot g'oyasi bilan maydonga chiqdilar, ularning tashabbuslari va ezgu amallari jamiyatda chuqur aks-sado berdi, qudratli kuchga aylandi.

**Mahbuba KARIMOVA, «Milliy tiklanish» muxbiri**

## YURTBOHIMIZ TASHABBUSI BILAN TOSHKENTDA O'TGAN VA DUNYO TARIXCHILARI E'TIBORINI TORTAYOTGAN ANJUMAN NAFQAQT BIZ, MARKAZIY OSIYO AHOILISI VA TURKIY TILLI DAVLATLAR, HATTO DUNYO AHLINI HAM KECHA VA BUGUNGI KUN O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKKA E'TIBOR QARATISHGA UNDAYOTIR.

qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bilganlariga e'tibor qaratildi.

Ha, chindan ham millat va mamlakat ozodligi yo'lida jon fido qilganlar yo'li va taqdirini

✓ Nigoh

# Insoniyatni ezgulikka, ogohlikka undagan adib

Shu kunlarda jahon miqosida nom qozongan adib, davlat va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 95 yilligi keng nishonlanmoqda. Chingiz To'raqulovich Aytmatov 1928-yil 12-dekabr kuni Qirg'izistonning Talas vodiysidagi Shakar ovulida tavallud topgan.

Betakor ijodkor, davlat va jamoat arbobi, diplomat, Qirg'iziston xalq yozuvchisi, Qirg'iziston Fanlar akademiyasi akademigi sifatida tanilgan adib 1953-yilda Qirg'iziston Qishloq xo'jaligi institutini tamomlaydi. Chingiz Aytmatov 1956 – 58-yillar Moskvadagi Yozuvchilar uyushmasi Oliy adabiyot kursi tinglovchisi bo'lgan edi.

Manbalarga ko'ra, asarlarini qirg'iz va rus tilida yozgan adibning ilk hikoyalari 1950-yillarda nashr etilgan. «Baydamlol sohillarida» (1955), «Yuzma-yuz» (1957) asarlari o'tkir syujet, kuchli ichki ruhii ziddiyatlarga boy. «Jamila» (1958), «Sarvqomat dilbarim» (1961), «Bo'tako'z», «Birinchi muallim» (1962), «Momo yer», «Somon yo'li» (1963), «Alvido, ey Gulsari» (1966) kabi povestlarida muhabbat tarannum etilgan.

Chingiz Aytmatovning «Tog'

va cho'l qissalari» turkumiga kirgan asarlari yuksak baholandi. Adibning «Oq kema» (1970) asarida insoniy go'zallik, ezgulik va hayot ziddiyatlari, ekologiya muammolari teran tadqiq etiladi. «Oq kema» kinofilmi ham asar kabi shuhrat qozondi. «Dengiz yoqalab chopayotgan olapar» (1977) povestida muhim ma'naviy masalalar, sho'ro davridagi hayotning mash'um manzaralari o'z ifodasini topgan.

«Asrga tatigulik kun» (1980), «Qiyomat» (1986), «Kassandra tamg'asi» (1990) romanlarida umumbashariy dolzarb masalalar, sayyoramiz taqdiri, kuchli falsafiy, axloqiy va ijtimoiy muammolar haqida bong urilgan. Aytmatovning «Cho'qqida qolgan ovchining ohi zori» (M.Shoxonov bilan hamkorlikda) asari ma'naviyatga bag'ishlangani bilan ahamiyatli.

Adabiyotshunoslarga ko'ra, Chingiz Aytmatov prozasida ruhiyat tahlihi an'anaviy xalq ijodiyoti, qadimiy afsona va asotirlar, obrazlilik bilan uyg'unlashib ketadi. Unda ramziylikka moyillik ustuvor o'rinni egallaydi. Aytmatov «Inostrannaya literatura» (Moskva) jurnaliga muharrir (1980 – 90), 1990-yildan sobiq SSSRning,

so'ng Rossiya Federatsiyasining, 1991-yildan Qirg'iziston Respublikasining Lyuksemburg, Belgiyadagi elchisi bo'lib faoliyat ko'rsatdi.

Chingiz Aytmatov tashkil etgan «Issiqko'l forumi» xalqaro tinchlik harakati, muhim ijtimoiy masalalarni hal etishda samarali bo'lmog'ida. Chingiz Aytmatov 1995 – 2008-yillarda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi prezidenti sifatida faoliyat ko'rsatgan edi.

Atoqli adibning asarlari jahonning ko'plab xalqlari tillariga tarjima qilinib, millionlab tirajda chop etilgan. «Sarvqomat dilbarim» («Dovon»), «Bo'tako'z» («Jazirama»), «Birinchi muallim», «Jamila», «Alvido, ey Gulsari» va boshqa asarlari ekranlashtirilgan, o'zbek va chet el teatrlarida sahnalashtirilgan.

Uning «Momo yer» asariga Ikrom Akbarov musiqa yozgan. Aytmatovning qariyb hamma asarlari o'zbek tilida nashr etilgan. Chingiz Aytmatov o'zbek adabiyoti, umuman, o'zbek madaniyati tarixini yuksak baholab, «Qadim-qadim o'zbek madaniyatining O'rta Osiyoga ko'rsatgan ta'sirini ko'hna Vizantiyaning Qadim Rusga

ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash mumkin», deb hisoblar edi.

Chingiz Aytmatov O'zbekiston Respublikasining «Do'stlik» (1995), «Buyuk xizmatlari uchun» (1998) ordenlari bilan mukofotlangan. Qirg'iziston Respublikasida Xalqaro Chingiz Aytmatov nomidagi «Oltin medal» mukofoti ta'sis etilgan (1999).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda keyingi yillarda Chingiz Aytmatov ijodini o'rganish, uning turkiy xalqlar hamjihatligini ta'minlash, insoniyatni ma'naviy kamolot sari yetaklash borasidagi xizmatlarini keng targ'ib etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2022-yilda marhum Chingiz Aytmatov Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.


Darhaqiqat, ulug' ijodkor Chingiz Aytmatov turkiy xalqlar qadriyatlarini kuylagan, insoniyatni mudom ezgulikka, ogohlikka undagan, bashariyatga faqat va faqat yaxshilik sog'ingan betakor adib edi.

**N.USMONOVA, O'ZA muxbiri**

Kuting!

# YANGI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI

# YOSH KADR-LARGA TAYANYAPTI



Kelgusi sonlarda

(Boshlanishi 1-betda)

# TA'LIM & ERKIN TANLOV



## uyg'unligi orqaligina katta yo'lga chiqamiz

2. O'qituvchi ta'lim muassasasini tanlashi va teskarisi, ya'ni ta'lim muassasasi o'qituvchini tanlashi imkoniyatlarini yaratish. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, ayrim ta'lim tashkilotlariga, xususan, oliy ta'lim muassasalariga, akademik litseylarga, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va boshqalarga o'qishga qabul qilish tanlov asosida amalga oshiriladi. Bolaning xususiy ta'limga borishini aytmasak, bolalar bog'chasini, maktabni tanlash imkoniyatlarini yaratilishi kelajak orzu-rejalardir. Xuddi shunday, ta'lim muassasasi ham o'qituvchini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi haqida o'ylab ko'rish davri eshiklarni qoqib turibdi. O'qituvchini ham, o'qituvchining ham tanlash va tanlanishi muhim.

Bola o'zi tug'ilib, voyaga yetayotgan manzildagi umumiy o'rta ta'lim muassasasiga borishga majburligi, uning erkinligini cheklashi o'z yo'lga, uning bilimsiz bo'lib chiqishiga qo'yilgan dastlabki qadamdir. Biz uni tanlash imkoniyatidan mahrum etyapmiz. Xuddi shuningdek, ta'lim muassasasi ham tanlash imkoniyatidan mahrum bo'lmoqda. Bolani chertib-chertib olsin, mayli, bilim berishga ham kafolat bersin, o'z so'zining ustidan ham chiqsin. Chiqmasa, eng oxirgi o'rinlarda turadigan muassasa bo'ladi-qoladi.

O'qituvchi ta'lim muassasasini va o'qituvchini ta'lim muassasasi tanlash imkoniyatlarini yaratish dolzarb masalalardan. Bugun o'qituvchini ta'lim muassasasi rahbari o'zining shaxsiy mezonlari (qarindosh-urug'chilik, mahalliylik, tanish-bilishchilik, xotmalik va h.k.) ni e'tiborga olgan holda dargoh maqsadlariga mos keladigan reyting asosida tanlar ekan ta'limga tub o'zgarishlar nihoyatda qiyin kechishini bashorat qilish mumkin.

O'qituvchi reytingi yuqori bo'lgan muassasani nishonga olishi yoki ta'lim muassasasi reytingi oliy darajadagi o'qituvchini o'chirib ovlamas ekan, ta'limga qandaydir ma'nodagi o'zibo'larchilik kayfiyati mavjuddek tuyuladi. Bugun ta'limga olib borilayotgan islohotlar aynan shu yo'nalishdagi muammolar yechimi ustida olib borilayotganligiga urg'u berish zarur. Xususiy ta'limni rivojlantirish - ta'limga ko'p muammolar yechimi kalitidir. Nima uchun muammolar ko'p, chunki ular bir-biri bilan zanjir kabi bog'lanishda.

Xususiy ta'lim o'qituvchini ham o'quvchini ham tanlaydi. Keyingi yuqorilari o'qituvchining ham, o'quvchining ham eng yaxshilariga egalik qiladi va bu tartib o'qituvchi va o'quvchining saviyasiga qarab quyigacha tushib keladi. Bugungi davlat ta'lim muassasalaridagi asosiy vazifasini esdan chiqargan ayrim pedagogik jamoalarda kechayotgan sir-borlar mana shunday o'yashga majbur etadi-da. Davlat ta'lim muassasalarida ham tanlov amaliyotini joriy etish davr talabi. Tanlov - ta'lim bo'lmas. Tanlov - tanlash va tanlanish imkoniyatini yaratish shart.

### ANGLANMAYOTGAN PSIXOLOGIYA

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga psixologik tashxis qo'yishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biz psixologik tashxislar bolani saragini sarakka, puchagini puchakka ajratish emasligini haligacha tushunib yetmadik. Bolaning imkoniyatlarini baholash, uning xohish-irodasiga teskari borish ota-onalarning orzu-umidlarini ro'yogga chiqaruvchi sifatida qarashdek yot tushunchalardan xalos bo'lmaganligimiz oqibatida bola boshqa bir dunyoga tushib qolganidagina anglanayotganligi qanchadan qancha taqdirni o'zimiz, ko'rib-bilib, sindirayotganimizni tan olishni istamaymiz.

Nima uchun? Psixologik testlar xo'jako'rsinga o'tkazilyaptimi? Testning natijasiga qarab bolani yo'naltirish chora-tadbirlari ishlab chiqilyaptimi? Amalga oshirilyaptimi? Bolaning nimaga yoki kim bo'lishiga qiziqishini uning o'zidan so'rab, keyin yozib ko'ramizmi yoki uning qiziqishlarini aniqlashning boshqacha yondoshuvlari mavjudmi? O'zi shunday talabga javob beradigan dasturlar ishlab chiqilganmi? Bitta psixolog nechta o'quvchi bilan ishlash imkoniyatiga ega? Umuman, savollar ko'p. Sakkiz yuz bolaga bitta psixolog shtati ajratilishining o'zi savollar javobsiz qolishiga sababdir.

Maktabda psixolog bo'lib ishlash yurgan o'qituvchilardan so'rab-surishtirdik. Nima uchun o'qituvchilarda dars o'tishga hafsa yetishmayotgan hollar ko'p kuzatiladi? Bolalarni o'yinroqqa chiqaramiz, lekin ularning har xil fanlarga munosabatlari har xil, bu nima bilan bog'liq, o'qituvchi qattiqqo'lmi, o'qitish metodikasi zamonaviymi, bolalarni qiziqitirishni biladimi? Bu savollarga aniq-tiniq javob bera oladiganlarni izlayapmiz, afsuski, javoblar tizimli emas, ola-quruq gaplar, o'rganishlar olib borilmagan.

Xususiy ta'limga o'rnak olsa arziydigan ta'lim tashkilotlari tajribasini o'rganishga ayrim hollarda oriyat yo'l qo'ymaydimi, bilimaymiz. Xullas, go'yoki, «bergan buguni o'tdi, ertaga Xudo poshso» qabilidagi kun o'tar kayfiyatdan butunlay xalos bo'lganimizni ovoza qilolmaymiz.

Oliy ta'limga kelgan birinchi kurs talabasining yuqori pardalarda ijro etilishi kutilayotgan orzu-umidlari auditoriyaga kirgan hamono puchga chiqib, hafsalasi pir bo'layotgan hollar uchramaydi, deb qattiq turib himoya qilolmaymiz.

Davlat rahbarining qistoviga qaramasdan o'zimizni qo'lida andava ushlagan ustaday tutishimiz tizimni isloh etishda qanchalar qiyinchiliklar tug'dirmoqda. «Mulla bilganini o'qiydi» qabilidagi dars jarayoni xususiy ta'limni kuchaytirish orqali raqobat yaratilmasdan o'zgarimasligini professor-o'qituvchilarning og'zidan eshitish qanchalar og'ir.

Arximed «Yerning tayanch nuqtasini topib ber, uni ko'taraman» degan ekan. Inson o'zgarmasa - jamiyat o'zgarmaydi, degan tamoyilning tayanch nuqtasi qayerda? Nima qilsak inson o'zgaradi? Bizningcha, insonni o'zgartirishning tayanch nuqtasi - bu uning psixologiyasi emasmi.

Milliy mentalitetimizni qarang, ota-onalarning orzulari: bolalari oliy ma'lumotli bo'lishi kerak. Bolaning qobiliyati, qiziqishi, xohish-istagi ikkinchi, ota-onaning orzusi birinchi darajali. Ayrim ota-onalarning kasb-hunar haqida o'yashga uyalishini eshitish menga juda nash'a qilgan deb o'ylaysizmi, yo'q, u zaxarli kulimsirash bo'lgan. Hayot ko'rsatmoqda, oliy

“

**ALISHER NAVOIY  
NECHANCHI YIL  
TUG'ILGAN? BUTUN  
OLAM TORTISHISH  
QONUNINI KIM KASHF  
ETGAN? GALOGENLAR  
MENDELEYEV  
JADVALIDA  
NECHANCHI GURUHDA  
JOYLASHGAN,  
GURUHCHASI  
ASOSIYMI YOKI...  
DEGANGA O'XSHASH  
SAVOLLAR YODLASHGA  
YO'NALTIRILGAN. BU  
SAVOLLAR XOTIRANI  
ANIQLASHGA  
QARATILGAN. BU  
SAVOLLARNING  
JAVOBINI ZARUR  
BO'LGANDA ISTALGAN  
HAR KIM KITOBGA  
BIR QARAB BILIB  
OLISHI HAM MUMKIN.**

ma'lumotli yigit-qizlarimiz diplomni sandiqqa solib qo'yib, kasb-hunar o'rganmagan ekanmunda, deb afsuslanib, yuribdi. Ota-bobalarimiz «yigit kishiga yetmish hunar oz», deganlarining ma'nosini biz endi-endi tushunaymiz. Lekin «bola ta'limga kiritilgan sarmoya - kelajak uchun eng samarali sarmoya» ekanligini har bir ota-ona ongiga qanday singdirish mumkin. Meni shu narsa ko'p o'ylantirib yuribdi.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlar tashkil etildi. Kasb-hunarlarini egallang, iqtidoringiz bo'lsa ta'limga keyingi bosqichlarida faol bo'lishga undaydi. Bu jarayon nafaqat bolaga o'tilayotgan fanga qiziqish uyg'otadi, balki kelajak hayotini ham belgilab berishga zamin yaratishi mumkin. Chunki u o'tilayotgan fanlarning qaysi biri uning diliga, iqtidoriga moyilligini ham o'zi bilmagan holda his etadi.

Ayrim hollarda ba'zi fanlardan tuzilayotgan test savollari tafakkur qilishni talab etmayotganligi, javoblarni yodlash bilan zarur ballni to'plash imkonini berish hollari kuzatiladi. Nima uchun? Chunki test savollarini tuzishda yuzaki yondashuvlar bo'lgan.

Alisher Navoiy nechanchi yil tug'ilgan? Butun olam tortishish qonunini kim kashf etgan? Galogenlar Mendeleev jadvalida nechanchi guruhda joylashgan, guruhchasi asosiy yoki... deganga o'xshash savollar yodlashga yo'naltirilgan. Bu savollar xotirani aniqlashga qaratilgan. Bu savollarning javobini zarur bo'lganda istalgan har kim kitobga bir qarab bilib olishi ham mumkin.

o'kinish qoladi, xolos.

Shu gaplardan keyin o'ylanmasiz-da. Nima uchun shuncha yillardan beri Rossiyaga qatnayotgan aksariyat yoshlar hech qursa rus tilini o'rganolmayaptilar? O'zibo'larchilik psixologiyasi shunchalar ildiz otganmi.

Shu ma'lumot, shu savoya bilan oliy ma'lumot olganda ham yurist, iqtisodchi bo'lishga oshiqning ko'pligini aytmaymiz. Bu savollar o'tgan davrda keragidan ortiq iqtidorli bolalarni ham yutib yuborib, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishlariga mo'nalik qildi. Jamiyat uchun eng kerakli soha - texnika va texnologiyalar, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda o'rtamiyona bilimlari yoshlarga egalik qilganligi sir emas. Bu jarayon davom etmoqda.

Bugun hayot yoshlardan imkon darajasida ko'p kasb-hunar va oliy ma'lumotli bo'lishni talab etmoqda. Raqobat muhitida yashab qolishning birdan bir zamin po'devori. Davlat tomonidan shu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi ota-ona, o'qituvchi va yoshlar psixologiyasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ta'lim va tarbiyada psixologiya bosh masala. Inson psixologiyasini o'zgartirish - insonni o'zgartirishdir.

### TAFAKKURSIZ MANTIQ BO'LMAS

Eski davrda ta'lim qanday bo'lgan? O'qituvchi dars o'tgan, o'quvchi tinglagan. Domla ma'ruza qilgan, talaba yozib olgan. Eshitgan, yozib olgan narsasini yoddan aytib bergan va baho olgan. Yodlamasa nimanidir esdan chiqaradi yoki chalkashiradi, bo'ldi. Bahosi ikki. Yomoni chegaradan chiqmaslik. O'zingizcha ijodiy yondoshishga yo'l qo'yilmaydi.

Bugun ta'limga eski qoliplaridan voz kechish siyosatiga urg'u berilmoqda. Bola fikr yuritishi, qiyoslashi, solishtirib ko'rishi, qanday bo'lsa to'g'ri bo'lishini muhohaza qilishi, bir so'z bilan aytganda, mantiqli bo'lishi talab etilmoqda.

Milliy ta'lim dasturlari yaratilishi, ta'limga zamonaviy metodikalari ishlab chiqilishi o'quvchi hamda talabning mashg'ulotlar jarayonida faol bo'lishga undaydi. Bu jarayon nafaqat bolaga o'tilayotgan fanga qiziqish uyg'otadi, balki kelajak hayotini ham belgilab berishga zamin yaratishi mumkin. Chunki u o'tilayotgan fanlarning qaysi biri uning diliga, iqtidoriga moyilligini ham o'zi bilmagan holda his etadi.

Ayrim hollarda ba'zi fanlardan tuzilayotgan test savollari tafakkur qilishni talab etmayotganligi, javoblarni yodlash bilan zarur ballni to'plash imkonini berish hollari kuzatiladi. Nima uchun? Chunki test savollarini tuzishda yuzaki yondashuvlar bo'lgan.

Lekin mantiq talab etiladigan savol bo'lsa, o'quvchini tafakkur qilishga yo'naltirsa yanada yaxshi bo'lgan bo'lur edi. Savolning xotiraga mantiq orqali muhtabkam o'rnatish olishi muhim. Shu sababdan xotirada saqlanib qolgan javobni o'quvchi mantiq orqali esga tushirishi savollarning bosh vazifasi bo'lishi ma'qul bo'lsa kerak.

Hozirgi vaqtda maktab darsliklari mantiqqa yo'naltirishga qaratilayotganligiga guvoh bo'lyapmiz. O'ylaymizki, bu jarayon chuqurlashib boradi. Ba'zan nevaram bilan birga shug'ullanamiz. Mantiq talab etiladigan misollar, masalalarda, - to'xtang, to'xtang. Men o'zim, hozir, hozir, - o'ylab boshlaydi. Yechimni u o'zi topishga qiziqadi. Bola o'qishga kirishib ketayotganini o'zi sezmasdan qolmoqda. Test savollari shunday bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lsa kerak.

Bolaning tafakkuri o'sishida bayon, insho yozishning ahamiyati yuqoriligini ta'kidlash lozim. Borgan, ko'rgan, eshitganini bayon etish muhohada talab etganidek, biron mavzuda insho yozishda o'z fikrlarini sodda, lo'nda, tushunarli qilib oq qog'ozga tushirish muhohazasiz amalga oshmaydi. Lekin, nimagadir insho yozish masalasi ta'limga e'tibor talab etadigan jarayon bo'lib qolmoqda.

Ta'limga niyatimiz Tafakkur - maqsadimiz Mantiq bo'lishi lozim bo'lgan barcha imkoniyatlardan to'liq foydalanish choralarini ko'rib borishimiz talab etiladi.

### TALIMDA ERKINLIK

Biz bugun erkinlik tushunchasi bilan yashayapmiz. O'ngga qaraysizmi, chapga qaraysizmi, farqi yo'q, birinchi navbatda erkinlik tushunchasiga urg'u berishga odatlanib qoldik. Erkinlikni har kim har xil tushunishi, o'z qoliplari chegarasida qabul qilishi muammolarning asosi deb turib olsak mubolag'a bo'lmas.

Ta'limga ham bu masala bosh masalalardan bo'lib qolmoqda. Barcha yutuqlar-u kamchiliklar, muammolarning yechimini erkinlikka bog'lashga odatlanib ham qoldik. Albatta, ta'limga liberalallashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususiy ta'limga berilayotgan urg'uning o'zi bizning shunday fikr yuritishimizga asosdir. Hattoki, davlat oliy ta'lim muassasalariga erkinliklar berilmog'unda.

Davlat ta'lim muassasalarida bir umr rahbarlik qilish maqomidan voz kechish, necha yilga saylash muddatlarini aniq belgilash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Yuqori lavozimli mutasaddilarning bir vazifada bo'lish muddatini chegaralash mumkin bo'lgan jamiyatda nima uchun ta'lim muassasasi rahbarining rahbarlik muddatini chegaralamaslik kerak. Uning ishi ham juda mas'uliyatli.

Xususiy ta'limga bunday muammo tug'ilishi haqida gap bo'lishi ham mumkin emas, chunki bog'chasini, maktabini, institutini rahbarlarini u tanlaydi va undan ta'lim sifatini o'zi talab etishi mantiqli tuyuladi. Har qalay xorij tajribasi shunday fikrlashga undaydi.

Xususiy oliy ta'lim rahbarlarida ular faoliyatiga davlat tomonidan har qanday aralashuvni, nazoratni inkor etishga intilish borligi mavjudligini ta'kidlash lozim. Bu nafaqat xususiy oliy ta'limga, balki maktabgacha va maktab ta'limga xususiy ta'lim rahbarlarida ham kuzatiladi. Lekin unutmash kerakki, Davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablarining ijro etilishi ustidan nazorat shart va zarur. Albatta, xususiy

ta'limga shu standartlar va talablar doirasida o'zlarini ishlab chiqqan va tasdiqlatilgan o'quv dasturlari asosida ta'lim olib borishlari mumkin.

Albatta, dars o'tish jarayoni erkin. Nima uchun? Chunki bu jarayon ijodiy faoliyat. O'qituvchi darsni o'quvchiga yetkazishda o'zi uchun qulay bo'lgan uslubiyatni tanlaydi, o'zining tajribalaridan foydalanadi, balki o'qituvchining metodikasi tavsiya etilganidan ham yaxshidir. Lekin o'qituvchi dasturga rioya qilishi lozim. Chetga chiqish mumkinmas.

Ma'lumki, ijodiy faoliyat erkin, lekin ijodiy faoliyat natijasi - asar, maqola, kitob, qo'shiq, kuy va boshqalar kabi o'qituvchining dars o'tish uslubi ham huquqiy munosabat kasb etadi. Shu nuqtayi nazaridan qaraganda, erkinlik o'z yo'lga, lekin ijodiy faoliyat huquqiy munosabat tug'ilgandan o'qituvchi doirasida bo'lishini esdan chiqarmaslik muhimdir.

Shu yerda yana bir narsani esdan chiqarmaslik zarur. Davlat va jamiyat buyurtmachi, ta'lim muassasasi esa pudratchi. Qoida shulki, pudratchi buyurtmachi talabini bajarishi lozim.

Bir so'z bilan aytganda, bugun mamlakatimizda xususiy ta'limni rivojlantirish, buning uchun esa ularga shart-sharoitlar yaratish, imtiyoz va perefrensional berish amaliyotni kuchaytirish talab etiladi. Sohadagi muammolar yechimini shu nuqtadan izlasak to'g'ri bo'lsa kerak.

### UNIVERSITETMI YOKI KOLLEJ

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xususiy oliy ta'lim tashkilotlari ilmiy faoliyatni yo'lga qo'yishlari lozim. Ilmiy faoliyat olib bormagan universitetning kollejdand qanday farqi bor. Universitetda ta'lim oluvchilarga o'qiladigan ma'ruzalar odatda muammoli, ya'ni ilmiy yo'naltirilgan bo'lishi, seminarlar, laboratoriya ishlari shu muammoli vaziyatlar yechimiga yo'naltirilganligi, bir so'z bilan aytganda, talabalar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlari nazarda tutilishi to'g'ri bo'lsa kerak. Xususiy ta'limga nafaqat ta'lim berish, balki ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish vazifalarini ham yuklashning huquqiy asoslarini qabul qilish darok.

Dovrug'i ketgan xorij oliy o'quv yurtlarida «Akademik erkinlik» tushunchasi mavjud. Aytishlaricha, u joylarda kafedra, uning qoshida yoki alohida tizim sifatida ilmiy laboratoriyalar mavjud. Domlalar o'qituvchilik bilan bir paytda ilmiy izlanishlar ham olib boradilar. Ilmiy izlanish olib bormaydigan o'qituvchi universitetda ushlab turilmas ekan. Akademik erkinlik prinsiplarini esa o'rganish, bizning jamiyatga mos prinsiplarni joriy etish zarurati mavjud. Ilm qilish, ilmiy daraja va ilmiy unvonlar berishning amaldagi o'zimizni o'zimiz aldash siyosatidan voz kechish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda ilmiy faoliyatni rivojlantirish, unda xususiy sohani kuchaytirish dolzarb bo'lib qolayotganligini tan olishimiz kerak. Aytaylik, biron bir sohada ilmiy faoliyat olib borishga ixtisoslashgan xususiy tadbirkorlik subyekti mavjudligini hozircha eshitmadik. U albatta bo'ladi, lekin kutmasdan tadbirkorlarni shu sohaga yo'naltirish amaliyotini qo'llab-quvvatlash, imtiyozlar, periferensiyalar ajratish vaqtdan yutish imkoniyatini yaratgan bo'ladi.

Tashkil etilayotgan xususiy oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan tayyorlanadigan mutaxassisliklar ro'yxati, o'qiyotganlar salmog'i

o'ylatmasdan qo'ymaydi. Darhaqiqat, ular qaysi yo'nalishlarda mutaxassisliklar tayyorlashmoqda. Bizning e'tiborimizcha, yana shu – iqtisodiy huquq, tillar... Psixologiyani qo'llab-quvvatlagan holda muhandislik sohalari, qishloq xo'jaligi yo'nalishlariga e'tibor qaratilsa yomon bo'lmasdi. Yana qaytarishga majburiyatimiz: ko'pdan-ko'p qobiliyatli va iqtidorlilarni iqtisod, huquq sohalari «hazm» qilib yubormoqda. Qaniydi, ularning hammasiga yetadigan ish o'rinlari bo'lsa, hammasi olgan diplomidan unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa, ikkinchi mutaxassislikni olish uchun boshqatdan o'qishga majbur bo'lmasa, yomoni ikkinchi mutaxassislikni olish esa hammaga ham emas.

Ikkinchi bir muammo: xususiy ta'limga qabul qilinayotgan bolalarning bilim saviyasi. Asosan, davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirolmaganlar xususiy ta'limga bormoqda va bir tekis o'qib ketmoqda, bu esa xususiy ta'limga tartib qattiq ekanligi yoki nomiga o'qitayotganligi to'g'risida xulosa qilish zaruratini ko'ndalang qilib qo'yishi lozim.

Albatta, davlat aralashishi, tayyorlanayotgan mutaxassislikning bilimi bilan qiziqishi shart va lozimdek tuyuladi. Lekin o'z kelajagini ta'limga ko'rishi lozim bo'lgan xususiy ta'lim o'zi bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishi talab etiladi. Aks holda ertaga u o'z biznesidan mosuvo bo'lishi tayin.

Bu davlat ta'lim muassasalariga ham taalluqli bo'lishi, ular ham tayyorlayotgan kadrlar sifatiga jiddiy e'tibor qaratishi vaqt masalasi bo'lib qolmasdan ta'sirli choralar ko'rish zarurati mavjud. Talaba o'zlashtira olmadimi, bo'ldi, uni o'qishdan chetlatish lozim. Bu amaliyot bizda esdan chiqqan. Ota-onani chaqir, «profsoyuz» aralash, buyog'i «jiyan»chilik, «tanka»chilik va h.k. Voyaga yetgan bolaga ota-onani chaqirish qanchalik to'g'ri? Axir, u o'zi uchun o'zi javob beradi-yu, kerak bo'lsa voyaga yetgan bafa o'ta-ona uchun mas'ul. Biz hali o'zimizni o'zimiz tushunib olish uchun ancha vaqt kerak, shekilli.

Jamiyatda paradoks holat shundaki, uzoq vaqtlar davomida oliy ta'limni a'lo baholarda bitirayotgan bilimi zo'r bolalar odatda «qirg'oq»da qolib ketayotganligi, amal-taqal qilganlar esa «omadli» bo'lib ketayotganligida. Bu holatning «faqat diplom olish uchun o'qish» kasalligining vujudga kelishida o'rni qanchalik ekanini baholashga hojat yo'q bo'lsa kerak.

Davlat oliy ta'lim muassasasiga qabul qilinmaganlar, ya'ni 56,7 ball to'play olmaganlarning xususiy oliy ta'limga o'qiy boshlashi «faqat diplom olish uchun o'qish» kasalligining xurujlari emasmi degan savol tug'iladi.

Aslini olganda xususiy ta'lim davlat ta'limga raqobatchi sifatida maydonga chiqqanida ayni muddao bo'lgan bo'lardi. Bir so'z bilan aytganda, xususiy ta'lim va davlat ta'lim muassasalari raqobati uchun sharoit yaratilishi lozim.

Bu nimadan boshlanishi lozim? Albatta, qabuldan. Xususiy ta'lim ham 56,7 balldan kam to'plaganlarni o'qishga tortishi mumkinligini o'yab ko'rishi kerak. Ikkinchidan va muhimi: 56,7 ball ni yildan yilga oshirib borish tendensiyasi yo'lga qo'yilishi kerak. Ana shunda oliy ta'limga bilimlilar bolalar kelishi kuzatiladi, deb o'ylaymiz.

Qo'shni mamlakatlarda o'qish tartib-taomillarini qayta ko'rib chiqish, talabni kuchaytirish haqida o'yab ko'rish ham maqsadga muvofiq.

#### MODDIY-TEXNIK BAZA

O'zbekiston aholisining shiddat bilan ko'payib borishi o'zi yetishmasdan turgan bog'cha va maktablarga bo'lgan talabni yanada murakkablashtirmoqda. Maktablarda ikki-uch smenali o'qishlar odatiy holga aylanganiga ancha yillar bo'lgan. Davlat bunday yukni ko'tarishi osonmas. Bu borada bizni xususiy sektor yonimizdan kirishi, qo'llab-quvvatlashi mumkin. Tadbirkorlar to'yxonalar qurishdan charchashdi, mehmonxonalar qurishdan astasekin hafsalasi pir bo'lmoqda. Bu aniq. Ularning mablag'ini ta'limga yo'naltirish choralari ko'rish lozim. Ta'limga biznesning imkoniyatlarini his etishlari kerak. Hujjat uchun normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish, imkoniyat va sharoitlar yaratish zarur. Aytaylik, moddiy-texnik bazaga qo'yiladigan talablarning minimal ko'rsatkichlari bajarilsa, bo'ldi, ruxsat berilishi to'g'ri bo'ladi. Faoliyati davomida jihozlab, ta'minlab, talablar darajasiga keltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ana shunda ta'lim psixologiyasi shakllanadi, o'qituvchining ham, o'quvchining ham tanlashi va tanlanishi, shu bilan birga akademik erkinlik imkoniyatlari yaratiladi. Umuman, ta'limga erkinlik nima ekanligi haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'lalimiz.

O'rol HAYITOV,  
partiya Markaziy kengashi  
bosh mutaxassisi



Bu masalada

# HAZIL HAROM

...Bundan 30-35 yil oldin mamlakatimizda foydalaniladigan yillik suv miqdori 62-64 milliard metr kub atrofida bo'lgan, hozirda bu ko'rsatkich 51-52 milliard metr kubga tushib qoldi. Agar vaziyat shu tarzda davom etaversa, yaqin 20 yilda ikki yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi hozirgidan 15 foiz qisqarishi, aholi jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi 25 foiz, qishloq xo'jaligida hosildorlik 40 foiz tushib ketishi mumkin.

Hisob-kitoblarga qaraganda, Markaziy Osiyoning aytim hududlarida 2040-yilga borib suv resurslariga ehtiyoj uch barobar oshadi.

Bu fikrlar O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi Rayosatining murojaatidan olindi.

Aziz fermer, dehqon va tomorqachilar, suvni tejang va qadrlang, deb boshlanadigan murojaatda qishloq xo'jaligida suvni tejash, undan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish, isrofgarchilikka barham berish orqali nafaqat xalqimiz hayotining yanada farovonlashishiga hissa qo'shamiz, balki kelgusi avlodlarimiz oldidagi eng oliy burchimizni ham bajargan bo'lalimiz, deyiladi.

Hujjatda alohida qayd etilishicha, suvni har kim o'zi uchun, kelajak avlodlar uchun tejashi lozim!

Mamlakatimizda suvning 91 foizi qishloq xo'jaligiga sarflanadi. Uning atigi beshdan bir qismi yurtimizda shakllanadi, qolgan esa qo'shni davlatlardan oqib keladi. Markaziy Osiyodagi

jami suv zaxiralarning 45 foizdan ortig'i o'lkamizda ishlatiladi.

Murojaatda yana bir fikr bildiriladi: mamlakatimizdagi sug'oriladigan maydonlarning 60 foiziga 1680 dan ziyod nasos stansiyasi va 4 mingdan ortiq sug'orish qudug'i orqali juda katta mablag' va sa'y-harakatlar evaziga suv yetkazib beriladi. Suv xo'jaligi sohasiga ajratilgan

10 trillion so'mning 63 foizi nasos stansiyalarining elektr energiyasiga sarflanadi. Ayon bo'ladiki, suv tekin emas va hatto arzon ham emas!

Qishloq xo'jaligidagi suv ta'minotida ustuvorlik paxta va g'allaga beriladi. Obihayotning qariyb 60 foizi ushbu ekinlarni sug'orish uchun yo'naltiriladi. Shu ma'noda agrar sohada

suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan paxta va g'allaga sarflangan suvga bog'liq bo'lmoqda. Qatnasi tildan qimmat suvni tejar ekanimiz, bu mamlakatimiz iqtisodiyotiga, xalqimiz farovonligiga, el-yurtimiz ravnaqiga, farzandlarimizning kelgusi baxtli-saodatli hayotiga qo'shayotgan eng xayrli ulushimiz bo'ladi.

Suv tekin emasligi, uni isrof qilish esa xalqimiz kelajagiga xiyonat bilan barobarligini unutmaylik!

Qayta-qayta takrorlangan bo'lsa-da, bir haqiqatni unutishga haqqimiz yo'q: suv eng – ulug' ne'mat! Undan tejamkorlik bilan foydalanish, har bir tomchisini asrab-avaylash kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimizdir!

O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi murojaatini qayta-qayta o'qish asnosida shunga amin bo'lish mumkinki, suv bilan bog'liq og'riqli prognozlar afsuski, achchiq haqiqatga yaqin...

Odilbek RAHMONOV

Har yili

10 MLN.

gektarga yaqin maydonda o'rmonlar vayron bo'lmoqda



Parlamentda qayd etilishicha, O'zbekistonda o'rmon bilan qoplangan maydon 8,7 foizni tashkil qiladi. O'rmon fondi yerlarining eng katta maydonlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlari hududlarida joylashgan.

O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2021-yilda butun mamlakat bo'ylab amalga oshirilayotgan «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 mln. tup daraxt ekish, 5 yil ichida mamlakatimiz bo'ylab 1 mlrd. tup daraxt va buta ko'chatlari ekish rejalashtirilgan. Loyiha doirasida 2030-yilga kelib respublika shaharlaridagi yashil maskanlar maydonini 30 foizga oshirish ko'zda tutilgan.

Ya'ni, 2030-yilga qadar o'rmon fondi yerlari maydonini 14 million gektarga, shundan o'rmon bilan qoplangan yerlarni 6 million gektarga, urug' tayyorlash hajmini yiliga 840 tonnaga, asalari oilalari sonini 300 mingtaga, qishloq xo'jaligi

mahsulotlari yetishtirish hajmini yiliga 32 ming tonnaga, dorivor o'simliklar yetishtirish hajmini yiliga 11,6 ming tonnaga yetkazish nazarda tutilgan.

Deputatlarning aytishicha, O'zbekistonning bioxilma-xilligi 27 ming turdan ziyodni tashkil etib, Qizil kitobga 206 ta hayvon turlari va 314 ta o'simlik turlari kiritilgan. Qizil kitobda hayvonot va o'simliklar olamining kamyob, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlari to'g'risidagi ma'lumotlar jamlangan bo'lib, unda har bir turning qisqacha tavsifi, tarqalishi, o'sish sharoiti, soni, ko'payishi, arealining o'zgarish sabablari, madaniylashtirilishi va muhofaza choralari ko'rsatilgan.

Mutaxassislar tomonidan har yili dunyoda 100 million gektarga yaqin sog'lom va unumdor yerlar yo'qolib borishi qayd etildi. Ushbu tendensiyani hisobga olgan holda, dunyoda yer degradatsiyasining neytralligiga erishish uchun 2030-yilgacha 1,5 milliard gektar maydonni qayta tiklash lozim.

Kuting!

UKRAINA PREZIDENTI

«ZELENSKIY»

YAQINDA ROSSİYADAN O'ZBEKISTONGA QAYTGAN QO'SHIQCHI

NARGIZA ZAKIROVA

BILAN NIMA HAQIDA SUHBATLASHDI?

Yoki rossiyalik prankerlarning navbatdagi ovidan qanday xulosalar chiqarish mumkin?

Kelgusi sonlarda



Taniqli yozuvchi, tarjimon va jurnalist, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'ofurovning «Hurriyat» gazetasida chop etilgan maqolasida takidlanishicha, agar davlat rahnamolik qilsa, homiylik qilsa, gazeta va jurnallar, hech bo'lmasa mamlakatdagi asosiy nashrlar, ya'ni hammaga kerak, davlat siyosatini, ma'naviyatini, ma'rifatini ko'taradigan nashrlarning qaddini tiklash mumkin bo'ladi.

Axir nima uchun dunyoda AQSH, Yaponiya, Xitoy, Turkiya, Angliya va boshqa taraqqiy etgan davlatlarda bir million va undan yuqori adadda chiqayotgan nashrlar bor. Ularda odamlarning uyiga gazetalar keladi. Misol uchun, Niderlandiyani olaylik. Bu yurtda xonadonlarga erta tongda eng sara nashrlar kelar ekan. Afsuski, bizda ming-minglab mahallalar, qishloqlarga deyarli gazeta va jurnallar yetib bormayapti. Achinarli hol bu. To'g'ri, bugun zamon o'zgardi. Bir paytlardagidek odamlar gazeta do'konlarida navbatda turmaydi. Bugun hamma tezkor xabar va yangiliklarni qo'ldagi telefonidan olayapti. Biroq Internet va ijtimoiy tarmoqlar qanchalik muhim bo'lmasin, undan xotira sifatida foydalanib bo'lmaydi.


Mening fikrimcha, «bozor gazetalarini»ni o'ziga qo'yib berish kerak. Ular tijorat, reklama bilan yashasa, yashab ketaveradi. Ammo... «Xalq so'zi», «Yangi O'zbekiston», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Hurriyat», «Jamiyat», «Qishloq hayoti», «XXI asr», «Milliy tiklanish», «Adolat», «Ishonch», «Yoshlar ovozi», «Sharq yulduzi», «Tafakkur», «Ma'naviy hayot», «Jahon adabiyoti», «Saodat», «Fan va turmush» singari nashrlarni yo'qotib bo'ladimi? Agar yo'qotadigan bo'lsak, ularning o'rni nima bera olamiz? Zero, fikri ojizimcha, Uchinchi Renessans g'oyasini matbuotsiz eluyurtga to'laonli singdirib bo'lmaydi. Qolaversa, shuncha og'ir yumushlarni, ulug' bunyodkorliklarni bajarayotgan O'zbekistonimiz uchun yuqorida men sanagan va sanamagan, aytaylik, jami bo'lib 20 ta nufuzli nashrni xonadonlarga, o'qishga chanoq aholiga yetkazib berish ham cho't ekanmi?

Абдулла Қодирий

Ўткан кунлар



Ақром Малиқнинг Абдулла Қодирий ҳақидаги фикрлари ижтимоий тармоқ фойдаланувчиларини жўнбушга келтирди, дейиш мумкин. Хусусан, таниқли журналист Рўзимбой Ҳасан «Ақром Малиқ, деган ўқирмон (тадқиқотчи эмас!) Абдулла Қодирий ҳазратларига тош отибди. Нима эмиш — «Қодирий ўртағиёна бир асар ёзганмиш», 1956 йил Қодирий оқланганида Ғофур Ғулом ҳам Қодирийни «ўртағиёна бир ёзувчи эди», деб ҳасаданми-қўрқувданми минғирлаган экан. Уша ғофиллардан қолган тош энди бу бандаси қўлига тушибди. Кимсанки, миллат учун жонини тиккан улғимизга тош отаяпсан? «Ўткан кунлар»нинг ақалли бир варағи каби бир нарса ёзиб қўригин аввал, деб роса ачиққаниб ёзган бўлса, Уразбай Абдураҳманов «Абдулла Қодирийни давр маёғи», дея атайди.



Хурд фикрлик

# ОҒИЗГА НИМА КЕЛСА АЙТА-ВЕРИШ КЕРАК

ДЕГАНИ ЭМАС!

Норқобил Жалилов эса шундай ёзди: «Қодирийнинг улкан қарвони — «Ўткан кунлар» деб аталмиш кема дунёни айланиб юрибди, бегонамас, ўзини ўзбекман деб юрганлар отган тош-кесак бу қарвон ортидаги чангигаям арзимайди. Осиллаверсин, яқинда яна битта сохта «тарихчи» хали Амир Темури, хали Бобур ҳазратларига осилди, Оллох кифоя қилсин шундайларга», дейди.

Шунингдек, Озод Мўмин Хўжа, Қаноатхон Рустамова, Шарофиддин Тўлаганов, Дониёр Юсупов, Хамид Нуриллаев каби facebook фаоллари ҳам Ақром Малиқнинг фикрларини «ҳазм» қилиб бўлмаслигини таъкидлашди.

Фақат тилшунос, журналист ва блогер Элдар Асанов телеграм каналига қўйган куйидаги постига бироз босиқлик маданияти ила муносабат билдирди: «Лекин Ақром Малиқ кўтарган масаланинг тарихий ҳақиқат билан боғлиқ бир жиҳати ҳам бор. Гап шундаки, охириги 30 йил ичида жадидлар ўзига хос бир рамзга айланиб қолди. Кўпчилик жадидлар ким, нима қилган, қандай қарашда бўлган, роли қанча бўлган, унча яхши билмайди, лекин улар ҳақида мактаб дарслиқларида, балки университетда ўқиган романтизациялаштирилган умумий маълумотдан келиб чиқиб, ўзини жадидларнинг давомчиси деб эълон қилиб юборади.



Бунақа мавҳум қиёфадаги жадидлар ҳаммага маъқул, ҳамма уларга ўхшагиси келади. Шунинг учун, озгина кузатсангиз, интернетда «качонгача адолатсизлик!» деб бақириб юрадиган ижтимоийчи блогерлардан тортиб шарият қонунарига асосланган жамият қуриш тарафлори бўлган ўта сўл қадимчилар ҳам жадидларни эслаб қолади, ўзини жадидларга қиёслайди (айниқса, ҳокимиятдан босим бўлиб қолса), жадидларга издош бўлишга даъво қилади. Жадидларни яхшироқ ўрганган сайин мавҳумлик пардаси олиб ташланиб, уларнинг қарашлари, идеологияси яққолроқ кўрина бошлайди. Мана шундай «яқинроқ» қарашга ҳаракат қилганлар аслида жадидлар улардай фикрламаслигини, ҳатто уларнинг қарашига муҳолиф эканини тушуниб қолади. «Ўткан кунлар»ни тушуниб ўқиган замонавий қадимчилар ҳам нега ўтмиш қадимчилари жадидлардан нафратланганини тушунапти. «Кеча ва кундуз»ку, умуман феминистик роман десаём бўлади, феминизмга қарши кураш бошлаб юборган қадимчилар Чўлпонни ўзига душман деб билиши керак. Жадидлар ҳам, албатта, ҳаммаси бирдай фикрламаган, қанотлари, ички баҳслари бўлган. Лекин барини бирлаштирувчи умумий жиҳатлар ҳам бўлган. Жадидлар Европа ғояларидан илҳомланган модернистлар бўлган, улар ўз жамиятини ислох қилишни, европалаштиришни истаган. Бу ўзгаришларни бошида миллийликни ва диннинг ролини максимал сақлаган ҳолда амалга оширишга ҳаракат қилишган, бу имконсизлиги билиниб қолгач, кейинги авлодлари борган сайин Европанинг типик дунёвий либерал миллатчиларидан фарқланмай қўйган. Жадидларнинг турли даврлардаги қарашларидан келиб чиқса, уларнинг ғояларини бугун давом эттираётганлар мўътадил консерваторлар, дунёвий миллатчилар ва либераллардир. Ўйлайманки, жадидлар ҳақида тадқиқотлар қўпайиб, матнлари чоп этилиб, зиёдилар уларни яхшироқ била бошласа, уларга эътироз билдирувчилар, ҳатто, ҳоин ва исломофобга

чикарувчилар ҳам қўпайиб боради. Ҳозиргидай романтик аура кетиб, ҳамма ўзини жадидлар давомчиси деб эълон қилиб юриши, тўлиқ барҳам топмасаям қамаяди, қарши фикрлар очик айтилади. Ва, қайсидир маънода жадидлар ҳақидаги тарихий реаллик тикланади.

Киссадан ҳисса шуки, жамиятимизнинг анчайин фаол аъзолари Ақром Малиқ деган кишининг бемаъно постидан кейин Абдулла Қодирийни тиш-тирноқлари билан ҳимоя қилишга гайёр эканликларини билдиришган.

Биз эса ақлга ишора тарзида таниқли ёзувчи Улуғбек Ҳамдамнинг 2000 йилда ёзган бир мақоласини эълон қилишга ахл қилдик.

М.САМИЕВНИНГ «АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ «ЎТКАН КУНЛАР» РОМАНИ ХУСУСИДА»ГИ ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАРИ БЎЙИЧА ТАКРИЗ

Дунёга, воқеа-ҳодисаларга танқид кўзи билан қараш — яхши тамойил. Лекин бу ҳамма нарсанинг устидан чизик тортиб, нигилистик қилиш мумкин, дегани эмас. Танқид бу — олимнинг ёки умуман, ҳар қандай кишининг даражасини, маълумотини, қолаверса, инсофу диёнатини рўй-рост кўрсатиб бергувчи ойна. М.Самиевнинг А.Қодирий «Ўткан кунлар» романи ҳақидаги «танқид»ини ўқиганимда юқоридаги каби мулоҳазалар киши хаёлини банд этиб олади. Чунки М. Самиев ёзган битик «Ўтган кунлар»нинг таҳлили ҳам, танқиди ҳам эмас, балки ошқора инқоридир. Бу эса фанда «нигилизм» деб аталади. Йўқ, Самиев борган йўлдан тортиб, у ёзган «танқид»нинг устидан қора чизик тортиганча, Самиев билан баравар бўлиш керак эмас, асло. Чунки М. Самиевнинг романининг бошланишида тарихий саналардаги чалқашликлар тўғрисидаги, Отабекнинг уйланиш жараёнидаги урф-олатимизга унчалик ёпишиб тушмайдиган жиҳатлари, Қутидор ва Отабекнинг ҳибс этилишидаги, Қушбеги билан суҳбатларидаги мулоҳазалар хусусидаги, Зайнаб ҳақидаги ва шунинг каби анчагина мулоҳазалари кишини ўйлашга мажбур этади, албатта. Лекин Самиевнинг бу «танқидий топилма»лари самимий бир тарзда баён этилмайди. Аксинча, унинг қўлига қалам олишидан ўзбекнинг энг семвили ёзувчиларидан бири Абдулла Қодирийни, унинг шох асарини «Ўткан кунлар»ни нима қилиб бўлмасин, қоралаш мақсади борлиги аён бўлади ва бу ўқувчини ўйлатади: «Нега, нима учун?» деган савол туғилади. Самиев бир ўринда (104-бет) Зайнаб ҳақида мулоҳаза юрита туриб, шундай ёзди: «Бу адолатдан эмас (Зайнаб аҳволни назарда тутгани — У. Х). Ёзганда қайсидир томонга оғиб кетаверадиган, яъни адолат тарозуси нимагинини тушунайдиганларнинг қаламини ўз вақтида синдириш керак. Чунки улар ўқувчининг онгини захарлайди. Захарли китобларни йўқ қилишни, яъни эзгуликни эса эрта-кечи йўқ».

Аввало, бундай кескин сўзлар айтиш учун кишининг маънавий ҳаққи бўлиши лозим. Қолаверса, «Ўткан кунлар» каби асарлар қачон ўқувчи онгини захарлабди? Қачондан бери бундай асарларни йўқ қилиш эзгулик ҳисобланиб қолди? Умуман, бунча қаҳр, ғазаб, жоҳиллик қаердан келяпти ва у кимга қаратилган, нима учун?.. Саволлар, саволлар. Назаримизда, ҳамма гап М.Самиевнинг бадий асарга ёндашувида турибди. Бу шундай ёндашувики, унда асар бадийатини, умуман, бадийатни тушунамаслик, тушунос ҳам назарга илмаслик бор. Агар «Ўткан кунлар» урф-олатимиз ёки турмушимиз тўғрисидаги ҳужжатли асар бўлганда эди, «ҳа, манави ўринда Самиев Қодирий қамчилигини бошлаб кўрсатибди» деган бўлар эдик. Факт шуки, асар бадийят махсулидир ва унга ёндашув ҳам бадийят мезонларидан бўлмоғи шарт. Йўқса, Қодирийни, унинг гўзал асарини — «Ўткан кунлар»ни биз ҳам тушунамаган, аксинча, Самиевга қўшилиб ўйлай бошлаган бўлар эдик. Ҳа, моҳият айнан шу ерда — санъат асарига санъатнинг, бадийятнинг мезонларидан туриб ёндашиш кераклигида. Самиев айни шу насада жудаям оқайди, у турмушнинг ўз тасавуридаги адолат мезонларидан туриб юқсақ бадийят намунаси бўлмиш — «Ўткан кунлар»ни баҳоламоқчи бўлади ва қаттиқ янглишади. Шунинг учун ҳам унинг назарида А.Қодирий кўп ўринларда «ёлғонни ёзади», «ноаниқликка йўл қўяди» ва ҳоказо. Ваҳоланки, ёзувчи воқеликни (асар тарихий роман жанрида битилганига қарамай) қандай бўлса, ўшандайлигича тасвир этмайди, балки уни ўз хаёлида қайта жонлантиради: фантазияга берилади, хаёл қилади. Шунинг натижасида мавжуд реалликка таҳрирлар киритади ҳамда ўз реаллигини яратади. Бу бадийят реаллик деб аталади. Лекин у (адиб) хаёл даражасини ижодий мақсадга кўра олади. Ўзи хоҳлаганча, ўзи билганча иш тутмайди. Ва буларнинг ҳаммаси бадийлик принципидан келиб чиқиб амалга оширилади.

Шу тарзда М.Самиев «такризнинг» хар бир саҳифаси билан узок тортиш мумкин. Лекин асосий ҳулоса шундан иборатки, улуг ўзбек адиби А.Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романи борасидаги М.Самиев олиб борган танқидий кузатишлар бадий асарни баҳолаш критерияларидан анчагина узок ёндашув бўлиб, у илмий пойдеворга эга эмас, деб қаралмоғи лозим.

2000 йил

Абдуғаффор ОМОНБОВ тайёрлади.

✓ Хабар

## «Жаҳон болалар адабиёти дурдоналари» номли 100 китобдан иборат асарлар мажмуаси нашр этилади



Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасида «Жаҳон болалар адабиёти дурдоналари» номли 100 китобдан иборат асарлар мажмуасини нашр этиш масалаларига доир кенгайтирилган йнгилиш бўлиб ўтди. Унда Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси, Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, Республика болалар кутубхонаси, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси вақиллари, ноширлар иштирок этди. Ингилишда асарлар мажмуасининг нашр концепцияси, унинг камров географияси, шунингдек, «Жаҳон болалар адабиёти дурдоналари»ни нашрга тайёрлаш билан боғлиқ ташкилий масалалар, жумладан, Ёзувчилар уюшмаси билан ҳамкорлик қилаётган қардош ва хорижий мамлакатларнинг адабий ташкилотлари билан материаллар тўплаш ва мажмуага киритилувчи асарларнинг муаллифлик


ҳуқуқларини қўлга киритиш бўйича музокаралар юритиш, қайта нашр этилувчи китобларнинг электрон нусхаларини олиш масалалари муҳокама қилинди. Мазкур ижодий ташкилотнинг ахборот хизматида кўра, «Жаҳон болалар адабиёти дурдоналари» Ёзувчилар уюшмаси томонидан 2024-2026 йилларда нашрга тайёрланади. Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан чоп этилади. Мажмуага жаҳоннинг бешта китъаси (Европа, Осиё, Африка, Австралия, Америка) адабиёти вақилларининг болалар ва ўсимирлар учун ёзган шеърлари, ҳикоялари, эртақлари, қиссалари ва романлари киритилди. Туркий халқлар, Шарқ мамлакатлари болалар адабиёти намуналарига алоҳида эътибор қаратилади.

Н.УСМОНОВА, ЎЗА

**OBUNA - 2024!**  
2024-YIL UCHUN «MILLIY TIKLANISH» GAZETASIGA OBUNA BO'LING! **158**  
Obuna indeksi

# «МЕН – СЕНДАМЕН; СЕН – МЕНДАСЕН»

**ёки Мунаввар қори Абдурашидхонов ва Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий ўртасидаги ёзишмалардан нималарни ўқиш мумкин...**



Жадидшуносларнинг кайд этишчи, халкимиз бошига тушган чоризм ва большевизм мустамлакачилиги йилларида «Мен – сендамен; сен – мендасен» хикматиға мувофик элимиз, миллатимиз қалбига маърифат ва озодлик, эрк ва ҳурлик уруғини сочиб, юрт ҳаётининг серташвиш йўлларини мунаввар қилган йўлчи-юлдузлардан бири Мунаввар қори Абдурашидхонов эди. У миллат тараққиётини ўзининг ҳаёти мазмуни, юрт ривожини асл мақсади, деб билди. Элининг номуни, обрўсини сақлаш пайда юргани учун: «Бизим Туркистон мамлақати туфроғ, сув ва ҳаво жиҳатидан энг бой мамлакатлардан бўла туриб, на учун бундан ўзимиз фойдалана олмаймиз?» – деб нола қилди, аёвсиз курашга бел боғлади. «Мана, кетмакет етган бундай саволларга жавоб бермак учун нодонлик ва оламдан хабарсизлик демекдир бошқа чора йўқдир. Бу нодонлик ва оламдан хабарсизлик балосидан қутулмак учун, аввал орамизда ҳукм сурган бузуқ оdatларнинг бузуқлигини билмак ва ўрганмак керакдир», – дейди адиб.

Мунаввар қори театр санъатига «бузуқ оdatларнинг бузуқлигини билмак» ва тазатмак муассасаси, «табиби ҳозир», деб қаради ва бу йўлда қатта ишларни амалга оширди. Ана шундай ишлардан бири маҳаллий руҳонийларнинг театр санъатига қаршилигини синдириш бўлди. Адиб халқ бағридаги жаҳолатни олиб ташлашга интилди, эл юрағида юрт учун музлақо янги санъат тури бўлган Европа типидagi театрға муҳаббат уйғота олди. «Турон» труппасининг 1914 йилдан то 1924 йилгача фаолияти фикримизга ёрқин далилдир.

Мунаввар қори театр санъати хусусиятларини, драматургияни чуқур билган олим эди. Шу боис, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийдек шеорға устозлик қила олди. Буни Ҳамзанинг ўзи «Қайдлар»да «Пирлардан: муҳтарам устози олий муаллим Мунаввар қори Абдулмажидхон ўғли... Мулоқотимиз 1908 йил, 11 декабрда» деб тан олган. Ана шу учрашувдан кейин у доимо пири билан учрашиб турган ва хат ёзиб, маслаҳат ва ёрдам сўраган. Буни Ҳамзанинг қуйидаги хатлари ва Мунаввар қорининг жавоблари ҳам тасдиқлайди. Масалан, Ҳамза 1915 йил октябрь-ноябрь ойларида пирига қуйидаги хатни йўллайди: «Хурматли Қори афан-

дия! Ушбу юбордиғим китобларни тезда адреси заказной бандерол ила юбормоғингизни рижа қилурман. Мумкин қадар қўлёмалиги пўчта маъмурларина маълум ўлмайдургон тарзда ўрамок лозим. Қанча харажат бўлса, мен берурман. Адрес: Стар. Маргелан, Чайний базар, г-ну А.Х.Зайнуллин. Ҳамза Ҳакимзода махсус. Ҳисоблар нима бўлди? Тамом бўлиши учун қачон йиғин қиламиз? Шунга ҳам ёзиб юборинг! Ҳамза Ниёзий».

Мактубдан сезилиб турибдики, Ҳамза ўз пиридан асарларини бостириш масаласида ёрдам сўрайпти. Жавобни ҳам тез олишни истаяпти. Хўш, гап қайси асар хусусида борапти? Нима учун қўлёмалиги сир тутилмоқда? Бунга Мунаввар қорининг қуйидаги жавоби ойдинлик киритади:

«Хурматли Ҳамза афанди! ... Шейрингизда, яхши, фақат «Мархаб» каби баъзи шейрлар чикорилуб, ўрнига кичикроқ шейрлар аралаштирилса, яна яхшироқ бўлур эди. «Турдику» ила «Икки мактуб» китобингиз менимча, макбул кўрилмади. Агарда ислох қилиб юборсангиз шейр ила «Ферузахоним»ни «Туркистон кутубхонаси» нашр қилиб кўради... Муҳибингиз Мунаввар қори, 1915 йил, 4-5 ноябрь».

«Хурматли Ҳамза афанди! «Ферузахоним» ила бошқа китобларингизни эртага почтадан иншооллох юборурман. Агарда «Ферузахоним» ман айтқонча, яъни: 1. Эшон ва бойларнинг малъун ва аблахликларини очикдан-очик «малъун», «ожохил», «хоин», «палид», «нобакор» каби сўзлар ила эмас, қилгон ишларини ёмонлиги ила кўрсатилса. 2. Мансур ила Ферузларнинг мактублари бироз кискартилса, чунки бундай ёширин мактуб киска ва маъноли бўлур. 3. Бир-бирлари ила кўришқондаги холлари бир оз узокроқ тасвир қилинса, чунки романга рух киритадургон ва ўқувчилари кизиксиндурдургон ўрилари шул васл холлари бўлур. 4. Аввал тасвифлари зикр қилинуб, сўнгра сифатлар зикр қилинса, яъни «хар бир назир қилинмиш кизларни

йигирма бир ёшига киргизуб, сўнгра никоҳина олугва оdatланган нобакор Тохир эшон» каби жумлаларни «Ул Тохир эшон хар бир назир қилинмиш кизни йигирма бир ёшигача умрини ўтқариб, сўнгра никоҳига олишга оdatланган эди» каби кискарок жумлаларга тахрир қилинса... Ислох қилиб юборсангиз аввалги шарт ила буни ҳам бостириб нашр этмак ниятидаман... Бокий ихват дўстингиз, Мунаввар қори 1916 йил, 1 январь».

Яна бир мактуб: «...«Ферузахоним»ни хозирда юбормай турингиз, чунки эхтимол яқин фурсатда ман ўзим хизматингизга бориб қолсам, шунда кўришиб қарор берурмиз. Хозирда хар ерда коғоз қажатчилиги ҳукм сурмоқдадир. Биноаналайх хануз майдонга чикгонларини эса алалхусус мактубларда жорий бўлгон китобларни бостирмак мумкин эмас. Шу сабабли гар қиммат тушса ҳам бостурмакдаимиз. «Миллий ашуларнинг» оз ва кичкина бўлгон сабабли бостурилди... Дўстингиз Мунаввар қори, 17 январь, 1916 йил».

Мунаввар қори ва Ҳамзанинг ушбу ёзишмалари уларнинг ниҳоятда қадрлон бўлганликларини тасдиқловчи ҳужжатдир. Шу билан бирга бу яна қуйидаги фикрларни майдонга олиб чиқади: биринчидан, Мунаввар қори Ҳамзанинг ўзи тан олган пири, маънавий отаси; иккинчидан, «Туркистон кутубхонаси» нашрининг муассисларидан биридир; учинчидан, Ҳамза ўз асарларини шу нашриётда чоп эттирган ва қўлёмаларини фақат «маънавий отаси»га ишонган; тўртинчидан, Ҳамза қўлёмалари чор ҳукумати томонидан доимо таъкибда бўлган, буни унинг: «Мумкин қадар қўлёмалиги пўчта маъмурларина маълум ўлмайдургон тарзда ўрамок лозим» сўзи тасдиқлайди; бешинчидан, Ҳамза ўз мактубларини 1915 йил апрель-май ва 1915 йил декабрь –1916 йил апрель ойларида ёзган кўринади (буни Мунаввар қорининг мактублари остидаги саналар тасдиқлайди); олтинчидан, Ҳамза ўзининг пьесаси ва яна бир асари хусусида фикр юритмоқда. Унинг:

«... саҳнаға кўюлмоғи жамият тарафидан макбул кўрилиб, бир вақтга мавқуф қолдирилган бўлса...» ва «рисолаларни бутун қолдириб» сўзлари бундай дейишга асос беради. Мунаввар қорининг жавоблари ана шуларга ойдинлик киритади. Мактубдан маълум бўладики, гап, асосан, Ҳамзанинг «Ферузахоним», «Миллий ашулар», «Турдику», «Икки мактуб» номи асарлари («китобингиз» сўзига эътибор беринг) ҳақида борапти. Бирок мактубда сўнги асарини жанри ҳақида ҳеч қандай гап йўқ. Аммо «Ферузахоним», айрими тадқиқотчилар айтганидек, «Захарли ҳаёт» драмасынинг биринчи нусхаси бўлмади, насли асардир. (Тадқиқотчиларни «эшон», Мансур, Феруза образларининг «Захарли ҳаёт» персонажларига ҳамоханлиги ва «малъун» каби сўзларнинг ишлатилиши қалғитган кўринади.) Мунаввар қори унинг жанрини аниқ кўрсатиб ёзади: «... чунки романга рух киритадургон ва ўқувчини кизиксиндурдургон ўрилари шул...». Демак, «Ферузахоним» Ҳамзанинг тақдирнома маълум романидир. (Буни топиш ва янада аниқлиқ киритиш ҳамзашуносларға ҳавола.) Мактублардан яққол сезиляптики, Мунаввар қори тўғри талабларни қўйган ва ҳамшиша шоғирдиннинг ижодига хайрихоҳ бўлган. Бундан ташқари, унинг яхши услубчи эканлиги ҳам кўзга ташланипти.

Маърифатпарвар бу инсон Ҳамза сингари қаламқашларға моддий ва маънавий ёрдам бериш билан чекланмади. У халкимизни истибод чангалидан қутқариш ишига астойдил киришди. Умуман, ўзбек матбуотининг майдонга келишини ҳам, тарихий тараққиётини ҳам Мунаввар қорисиз, унинг юзлаб эхтиросли мақолаларисиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Филология фанлари доктори, профессор Беғали Қосимов бу хусусда шундай ёзади: «Ўзбек матбуотининг майдонга келишида Мунаввар қорининг хизматлари қатга бўлди. У ўзбек матбуотининг дастлабки намунаси 1906 йилда чиккан «Тарақкий» газетасининг ташкилотчиларидан эди. Уша йили Мунаввар қорининг ўзи «Хуршид» газетасини чикарди. Газетанинг фаол муаллифларидан бири Худоёрхоннинг ўғли Фансуруллобек эди. Махмудхўжа Бехбудийнинг иштирокуюн (социалистик) партиясини кескин рад этган машхур «Хайрул умурри авсотуҳо» мақоласи мана шу газетата (1906, 6-сон) босилган эди. Сўнгра Мунаввар қори «Садойи Туркистон» (1914–15)ни майдонга чикаришда жонбошлик кўрсатди. 1917 йилнинг мартида эса ўзи муҳаррирлигида «Нажот» газетасини чикарди. Шу йилнинг июнида эса Тошкентада Аҳмад Заки Валидий томонидан «Кенгаш» журнали чикарилди. Кўп ўтмай, унинг муҳаррирлигини Мунаввар қори олиб бора бошлади.

Мунаввар қори XX аср бошидаги ижтимоий-сиёсий ҳаракатчиликнинг, миллий озод-

лик кўтарилишининг энг эътиборли намоёндаларидандир. Абдулла Авлоний таржимаи ҳолларидан маълум бўлишича, 1901 йиллардан бошлаб, Тошкентада маҳаллий ёшлардан «Жадидлар тўдаси» ташкил топган эди. 1914 – 15 йилларда «Садойи Туркистон»да муҳаррирлик қилган, 1909 йилда Лев Толстой билан хат ёзишган адвокат Убайдулла Асадуллахўжаев, шоир Абдулла Авлоний, Низомиддин Хўжаев қабила бу гуруҳнинг фаоллари бўлиб танилдилар. Авлоний унга 1904 йилда аъзо бўлганини маълум қилади. Мунаввар қори шунинг асосчиларидан эди. 1909 йилда у бошқа маърифатпарвар жадидлар билан бирга «Жамияти хайрия» тузади. 1913 йилда «Турон» жамиятини таъсис этади. «Мактаб», «Нашриёт» каби ширкатлар очади. Жамиятининг мақсади ерли мусулмон аҳолиси орасида маориф-маданиятта рағбат уйғотиш, уларға моддий-маънавий ёрдам бериш, улар учун саҳна асарлари тайёрлаш ва кўрсатиш эди. Мунаввар қори ёшларни ривожланган мамлакатларда ўқитиш, шу орқали Миллат ва Ватанни фарзандларига таъинтиш, дунёни англашиш ишларига алоҳида эътибор берди. 1908 йилдан 1923 йилга қадар унинг ғайрат ва ташаббуси билан юздан ортиқ туркистонлик чет элда ўқиб келди. 1920-23 йилларда бу ташаббусни Бухорода Фитрат ва Файзулла Хўжаев қўллаб-қувватлаб чикдилар. Маълумотларға қараганда, биргина 1922 йилда Олмонияда ўқиётганларнинг сони 60 тага етган. Шулардан тўрттаси (Жаббор Сагтор, Саидали Хўжаев, Аҳмад Шуқурий, Вали Қайомхон) тошкентлик эди.

Мунаввар қори гарчи театр асари ёзмаган бўлса-да, Туркистондаги театрчилик ишларининг йўлга қўйилишида Абдулла Авлонийнинг ёнида турди. 1913 йилда тузилган «Турон» жамияти низомида театрчилик ишлари алоҳида таъкидлангани, унинг заминиди «Театр» хаваскорлари труппаси» ташкил топгани беъиз эмас. Тошкентадаги «Коллизей» (ҳозирги Савдо биржаси биноси) да мана шу труппа томонидан «Падарқуш» драмаси биринчи маротаба саҳнаға қўйилиши олдидан Мунаввар қори театр ва унинг аҳамияти ҳақида нутқ сўзлайди. Ушбу 1914 йил 27 февраль матбуотда «Тарихий кун» деб эълон қилинади.


Афсуски, шўролар сиёсатида жадидчиликка муносабат ўзгара бошлағач, Мунаввар қорига ҳам ҳужум бошланади. Шунга қарамадан у ўз йўлидан қайтмайди. 1917 йилги Тошкент округ маданиятчиларининг курултойида жадидчиликни ҳимоя қилиб чиқади. Иккинчи маротаба Мунаввар қорини 1929 йилда қамоққа олдидлар. Унга миллатчилик айби қўйилади ва 1931 йилда халқ душмани сифатида отиб ташланади.

Мунаввар қорининг қатл қилиниши Сталин қатағонининг биринчи тўқилиши бошлаб берган эди...

Манба: Ziyo.uz

✓ Кўргазма

## Карвон йўллари чорраҳасидаги қадимий маданият



Самарқанддаги Ўзбекистон маданияти тарихи давлат музейида «Ўзбекистон воҳа хазиналари. Карвон йўллари чорраҳасида» номли кўргазма очилди.

Кўргазма 2022-2023 йилларда Франциянинг Лувр музейида намойиш қилинган Ўзбекистон тарихининг турли даврларига оид экспонатлар асосида ташкил қилинди. Луврда намойиш қилинган 169 дона экспонатнинг 133 таси Ўзбекистон музейлари ва илмий-тадқиқот институтлари фондларига тегишлидир. Аҳамиятлиси, бу экспонатларнинг 51 донаси Самарқанд музей фондларига тегишли бўлиб, уларнинг 48 таси кўргазмадан жой олган. Қолган уч дона экспонат, яъни «Сақлар дубулгаси» ҳамда «Исирикдон» жорий йилнинг апрель ойидан бошлаб Берлиндаги Жеймс Симон галереясида ва Янги музейда намойиш қилинмоқда. «Элчилар зали деворий сурати парчаси» эса Афросиёб музейига ўрнатилган.

Яна бир эътиборли жиҳати кўргазмада Самарқанддаги илк ўрта асрларға оид Кофирқалъа археологик объектдан топилаган панно биринчи марта намойиш этилмоқда. Экспозиция эрамиздан олдинги I минг йиллик бошларидан Темурийлар давригача бўлган даврни камраб олади.

– Кўргазма уч бўлимдан иборат, – дейди Самарқанд давлат музей-қўриқхонаси бош муҳофизи Махмудхон Юнусов. – Биринчи бўлим Суғд маданияти, иккинчиси IX-XII асрлар даври маданияти ва санъати, учинчиси эса

Темурийлар даври маданияти ва санъати деб номланди. Ўзбекистон Буюк Ипак йўлининг марказида жойлашганлиги сабаб ҳудудда дунё халқлари томонидан маданий соҳада узок тарихий давр мобайнида яратилган энг сара ютуқларни ўзида жамлаган маданият шаклланди. Ўзбекистон маданияти тарихи давлат музейи «маданият тарихи» профилига эга бўлганлигини ҳисобга олсақ Буюк Ипак йўлида юзага келган ва бир нуктада жамланган симбиоз маданиятнинг бизгача етиб келган энг нодир намуналарини бир жойга жамлаш ва намойиш этиш нақадар муҳимлиги ойдинлашади.

Таъкидлаш жоизки, хоржий давлатларда ташкил этилган юртимиз тарихи ва маданиятига доир барча кўргазмаларға томошабинларнинг қизиқиши жуда юқори. Жумладан, Хитойда Осие ўйинлари муносабати билан намойиш қилинган кўргазма ҳам таассуротларға бой бўлди. Фаолиятим давомида Урта Осие тарихий маданиятининг «юрағи» мамлакатимиз эканлигиға кўп бор ишонч ҳосил қилдим. Сабаби энг сара намуналар айнан ушбу ҳудуддан топиб ўрғанилган. Юртимиз маданияти тарихиға оид ноёб экспонатлар жой олган мазкур кўргазма доимий фаолият юритади.

Ҳ.ҲАСАНОВ



Ўқиб  
МИРЗО

Тақдир эркалатган қизлар, йигитлар  
Соҳилда сайр қилиб, атиргул ҳидлар.  
Хаёлчан боқади ғозий шаҳидлар...  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

Шахсий намуна йўқ, чунки Ибрат йўқ,  
Олимлар жуда кўп, битта Фитрат йўқ,  
Шу сабаб мажол бор, куч бор, қудрат йўқ,  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

Улар ғишт қўйган, биз тошлар отамиз,  
Улар сўз йиққанлар, биз гап сотамиз,  
Улар кун кутган, биз ойлик кутамиз,  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

Тавалло, Қодирий, Чўлпонлар қайда?  
Ҳамзахонлар қайда, Усмонлар қайда?  
Оғиз жуда катта, юраклар майда,  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

Ўшалар бизларнинг боболармикан?  
Биздан ўзларини тополармикан?  
Бизни набирам деб тан олармикан?  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

Улар мактаб қурган, биз уй қурагимиз,  
Улар ғоя сурган, биз ўй сурагимиз.  
Ёппа томошабин бўлиб турагимиз,  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

Қопқон давр эди, қаттол, қатағон,  
Отилиб чиққанни шартта отағон...  
Бугун юки енгил туя ётағон...  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

Ўзига келмайди ўздан кетганлар,  
Ихлос қўйиб шайтон думин тутганлар...  
Қани юрт деб ўзини унутганлар?  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

Шеър авжиди бирдан қалам секинлар,  
Буюк устозларим нима деркинлар?  
Сўнги жадид эди Абдулла, Эркинлар...  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

Уфққа урилиб, қайтиб келган ўқ  
Менинг юрагимни тешиб ўтган чўғ.  
Муаллимлар сероб, Авлонийлар йўқ,  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

Таълим-тарбияни нажот билганлар,  
Илмига ўзлари амал қилганлар.  
Қаранг, амал деб ўз жоғиң юлганлар,  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

Маишат, тўй, ҳашам бош мақсад ҳамон,  
Гапдан бошқа гап ҳам бор, эй қадрдон!  
Ҳамма замонда ҳам келмайди замон,  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

Занглаган зехнимни чархлаб берадиган,  
Умрим савдосини нархлаб берадиган,  
Шу шеърни ўғлимга шарҳлаб берадиган  
Жадидлар етишмаяпти, жадидлар.

**ОЙДАН ТУШГАН ЭМАС**

Ҳеч кимни бахт ўз-ўзидан қучган эмас,  
Қуш ҳам кўкка машаққатсиз учган эмас.  
Ойдин тунлар, осойишта, тиниқ тонлар  
Ойдан тушган эмас, кўкдан тушган эмас.

Мевасин еб, боғини ҳам сўраб қўйгин,  
Керак бўлса, боғ атрофин ўраб қўйгин.  
Ниҳолларнинг кокилларин тараб қўйгин,  
Озодлик ҳам, ободлик ҳам ўзи келмас,  
Ойдан тушган эмас, кўкдан тушган эмас.

Бу бинолар қайдан бино бўлди экан?  
Ким боболар қаддин расо қилди экан?  
Нечук бизни бугун дунё билди экан?  
Озодлик ҳам, ободлик ҳам ўзи келмас,  
Ойдан тушган эмас, кўкдан тушган эмас.

Эртақларда мўъжизалар сеҳр сабаб,  
Гулу гиёҳ кўкаргайдир меҳр сабаб.  
Тафаккурнинг хурлигига недир сабаб?  
Озодлик ҳам, ободлик ҳам ўзи келмас,  
Ойдан тушган эмас, кўкдан тушган эмас.

Ўн саккизга кирган йигит сўзига боқ,  
Юзига боқ, олов ёнган кўзига боқ,  
Бу энг буюк хазинадир, дўстим, бироқ  
Озодлик ҳам, ободлик ҳам ўзи келмас,  
Ойдан тушган эмас, кўкдан тушган эмас.

Шижоатнинг, жасоратнинг маҳсули бу,  
Ироданинг, заковатнинг маҳсули бу,  
Улуғ Инсон танлаб олган ҳақ йўли бу,  
Ўзбекистон, бундайин бахт ўзи келмас,  
Ойдан тушган эмас, кўкдан тушган эмас.

**ДИҚҚАТ! ТАНЛОВ!**

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ГАЗЕТАСИ ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИГА САБОҚ  
БЕРАЁТГАН ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЕТИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ УРТАСИДА

**«ЎЗБЕК ТИЛИ – МЕНИНГ ТИЛИМ»**

МАВЗУСИДА ИНШОЛАР ТАНЛОВИНИ ЎТҚАЗАДИ.

**ҒОЛИБ**

**20 МИЛЛИОН**

**сўм пул мукофоти билан тақдирланади.**

**ЮТУҚЛАР ҒОЛИБ ҲАМДА  
ОМАДЛИ УСТОЗЛАРГА**

**2024 йилнинг сентябрь ойида –  
Ўқитувчи ва мураббийлар  
байрами арафасида  
топширилади.**

Мурожаат учун: (90) 245-18-10  
(97) 423-32-68

ШУНИНГДЕК, ТАНЛОВДА 30 НАФАР ҚУШИМЧА НОМИНАЦИЯЛАР  
БЎРИЧА ҲАМ ҒОЛИБЛАР АНИҚЛАНАДИ.

**Халқаро ҳаёт**

**2023**

йилда 94 нафар журналист ўлдирилган



Халқаро журналистлар федерацияси (IFJ) ҳисоботига кўра, Исроилнинг ҲАМАСга қарши уруши ОАВ ходимлари учун 90-йиллардан кейинги энг қонли уруш бўлди. Маълум бўлишича, 7 октябрдан бери мазкур

худудда 68 нафар журналист ҳалок бўлди, бу кунига камида битта ўлим деганидир. Яна бир фикр: бу айни пайтда бутун дунё бўйлаб оммавий ахборот воситалари ходимлари орасида курбонларнинг 72 фоизи деганидир.

Антирейтингдаги иккинчи ўринни 2023 йилда етти нафар оммавий ахборот воситаси ходими ўлдирилган АҚШ банд этган. Украинадаги урушда эса бир йил ичида уч нафар журналист ҳалок бўлган.

**Қутлов!**

«Миллий тикланиш» демократик партияси раҳбарияти ва партия нашри жамоаси Сирдарё вилоят кенгаши раиси **НОРБОБО СОАТОВНИ** таваллуд кунин билан муборакбод этиб, ўта масъулиятли ва айни пайтда шарафли фаолиятида муваффақиятлар тилаб қолади. Сизга узок умр, соғлиқ ва оилавий бахт тилаймиз, азиз **Норбобо ака!**



<p>«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ДЕМОКРАТИК ПАРТИЯСИНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ГАЗЕТАСИ</p>	<p><b>JAMOATCHILIK KENGASHI:</b> <b>Alisher QODIROV – kengash raisi</b></p> <p>Akmal SAIDOV, Abror PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Nodir MUXTOROV,</p> <p>Odiljon TOJIYEV, Olim O'SAROV, Otabek JIYANBOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV, Ortiqali QOZOQOV, Feruza MUHAMMEDJANOVA, Xurshid DO'STMUHAMMAD, Sherzodxon QUDRATXO'JA, Shavkat SHARIPOV, Shuxratjon AXUNDJANOV.</p> <p><b>Bosh muharrir:</b> <b>Mirodil ABDURAHMONOV</b></p>	<p><b>TAHRIRIYAT MANZILI:</b></p> <p>Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsdud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.</p> <p>Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.</p> <p>Gazetada Internet ma'lumotlari va suratlaridan foydalanildi.</p>	<p>Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.</p> <p><b>NAVBATCHI MUHARRIRLAR:</b> Abdug'affor OMONBOYEV, Mahbuba KARIMOVA <b>NASHR UCHUN MAS'UL:</b> Ma'murjon YO'LDOSHEV <b>NAVBATCHI:</b> Feruza XODJAYEVA <b>DIZAYN GURUHI:</b> Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV</p> <p>Elektron pochta: mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru</p>	<p>Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Korxonaning manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy</p> <p>2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan. Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.</p> <p><b>Adadi – 7 172.</b> Gazetaning bahosi kelishilgan narxda. <b>Qog'oz bichimi:</b> 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq Buyurtma: G – 1216 Bosishga topshirish vaqti 21:00. Topshirildi 03:30</p> <p><b>ISSN 2010-7714</b></p> <p><b>Telefon:</b> (97) 755-10-11</p> <p>123456</p>
--	--	--	---	--